

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIIY
RIVOJLANISHINING ASOSIIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

тизимли таҳлили. Монография. Профессор Б.Бегалов таҳрири остида . Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Т.: ЎЗР ДСҚ Статистик материаллар тарқатишни техник қўллаб-қувватлаш шўъбаси, 2018 – 70 б.

4. Ғойибназаров Б.К., Иноятов У.У. Худудий тадбиркорликни ривожлантириш йўллари. “Мамлакатни модернизациялаш шароитида бухгалтерия ҳисоби, иқтисодий таҳлил ва аудитнинг роли”. Республика илмий-амалий анжуман. Фарғона, ФАРПИ, 2011 йил. – 57-59 б.

5. Раҳмонов Ҳ.О. Минтақада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришнинг асосий йўналишлари. -Т.: “ФАН”, 2008. -190 б.

TA'LIM XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI BOSHQARUV TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xaydarqulova Bonu G'ulom qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot
yo'nalishi talabasi*

bonuhaydarqulova7gamil.com

Annotatsiya: Maqolada ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishda raqamli boshqaruv texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi yoritiladi. Oliy ta'lim muassasalarida elektron axborot tizimlari, raqamli audit va avtomatlashtirilgan hisobotlarning moliyaviy jarayonlarni shaffof va samarali boshqarishdagi o'rnini tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar hamda raqamli boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha takliflar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *raqamli boshqaruv, ta'lim moliyalashtirish, elektron axborot tizimlari, raqamli audit, avtomatlashtirish, shaffoflik, moliyaviy nazorat, big data, sun'iy intellekt, oliy ta'lim, samaradorlik.*

Annotation: This article examines the importance and effectiveness of using digital management technologies in the financing of educational services. It analyzes the role of electronic information systems, digital auditing, and automated reporting in ensuring transparency and efficiency in financial processes within higher education institutions. The study also highlights existing challenges and provides recommendations for improving digital financial management in the education sector.

Keywords: *digital management, education financing, electronic information systems, digital audit, automation, transparency, financial control, big data, artificial intelligence, higher education, efficiency.*

Аннотация: В статье рассматриваются значение и эффективность использования цифровых технологий управления в финансировании образовательных услуг. Анализируется роль электронных информационных систем, цифрового аудита и автоматизированной отчетности в обеспечении

прозрачности и эффективности финансовых процессов в высших учебных заведениях. Также выявлены существующие проблемы и представлены рекомендации по совершенствованию цифрового управления финансовыми ресурсами в сфере образования.

Ключевые слова: *цифровое управление, финансирование образования, электронные информационные системы, цифровой аудит, автоматизация, прозрачность, финансовый контроль, большие данные, искусственный интеллект, высшее образование, эффективность.*

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim xizmatlarini moliyalashtirishda samarali boshqaruvni talab qilmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari moliyaviy nazorat, byudjet shakllanishi va sarflanishida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqarmoqda.

Raqamli boshqaruv texnologiyalari mablag‘larning maqsadli sarflanishini ta’minlash, moliyaviy jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, tizimlarni integratsiyalashmaganligi, malakali kadrlar yetishmasligi va ma’lumotlar xavfsizligi kabi muammolar mavjud. Oliy ta’lim muassasalarida “Hemis”, “my.edu.uz”, elektron to‘lov tizimlari, avtomatlashtirilgan hisobot platformalari kabi raqamli xizmatlarning joriy etilishi moliyaviy boshqaruvning yangi bosqichiga o‘tish uchun mustahkam asos bo‘lmoqda. Maqolada ta’lim moliyalashtirishida raqamli boshqaruv texnologiyalarining hozirgi holati, afzalliklari, kamchiliklari va samaradorlikni oshirish bo‘yicha takliflar tahlil qilinadi.

Davlat boshqaruvi va jamoat xizmatlarini raqamlashtirish bugungi kunda jahondagi eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Ta’lim sohasi ham bundan mustasno emas. Xususan, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ta’lim jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy va onlayn ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish davlatlarning strategik rivojlanish dasturlarida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda.

O‘zbekistonda ham Prezidentimiz tashabbusi bilan 2022-yilda qabul qilingan "Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi"da ta’lim sohasini raqamli transformatsiya qilish, onlayn ta’lim platformalarini yaratish, masofaviy ta’lim texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Raqamli boshqaruv, bu - ta’lim tizimida strategik maqsadlarga erishish uchun zamonaviy dasturlar, elektron tizimlar, sun’iy intellekt va big data texnologiyalarini qo‘llagan holda boshqaruv faoliyatini amalga oshirishni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PF–6079-sonli Farmonida raqamli texnologiyalarni barcha sohalarda joriy etish, raqamli iqtisodiyotga o‘tishning ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi ushbu sohadagi islohotlarning qamrovini kengaytirdi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta’lim tizimida raqamli boshqaruvning joriy etilishi —zamon talabi bo‘lib, u nafaqat boshqaruv sifatini oshirish, balki ta’lim xizmatlari sifati, ularning qulayligi, tezkorligi va adolatlilikini ham ta’minlaydi. Biroq, raqamli boshqaruvni joriy etish jarayonida bir qator tizimli muammolar, xususan, kadrlar salohiyati yetishmasligi, texnik infratuzilmaning to‘liq shakllanmaganligi, huquqiy va metodologik

asoslarning sustligi kuzatilmoqda. Ushbu maqolada aynan shu muammo va yechimlar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Oliy ta’lim muassasasining boshqaruv tizimi qanday tuzilishga ega ekanligini va uning ishlashini tushunish uchun bir nechta ilmiy yondashuvlarni o‘rganish zarur. Birinchidan, boshqaruv tizimining samaradorligini o‘lchashda sistemaning yondashuvi muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuv, boshqaruv tizimi muassasalaridagi barcha elementlarni bir butun sifatida ko‘rishga imkon beradi, ularning o‘zaro bog‘liqligini va faoliyatini tahlil qiladi. S. T. Bunyakova va A.V. Trofimov kabi tadqiqotchilar boshqaruv tizimining tuzilishi va uning samaradorligini baholashda bu yondashuvni qo‘llaganlar.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya va innovatsion boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlaridan biridir. E. I. Gadzhiyeva (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullarining oliy ta’lim muassasalarida qo‘llanilishi ta’lim sifatini va samaradorligini oshirishga olib kelganligi isbotlangan.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish

Innovatsion boshqaruv texnologiyalari: Raqamli texnologiyalarni joriy etish oliy ta’lim muassasalarining strategik boshqaruv tizimiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish (big data) va boshqa texnologiyalar boshqaruv samaradorligini oshirishda qo‘llanilmoqda. Masalan, raqamli platformalar orqali talabalarning yutuqlarini kuzatish, moliyaviy resurslarni boshqarish va o‘qituvchilarning faoliyatini baholash kabi jarayonlar avtomatlashtirilmoqda.

Onlayn ta’lim va masofaviy o‘qish: Pandemiya davrida onlayn ta’limning ahamiyati oshdi. Boshqaruv tizimi masofaviy ta’limni tashkil qilish uchun moslashmoqda, shu jumladan, oliy ta’lim muassasalari o‘z ta’lim dasturlarini raqamlashtirish, talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi interaktiv munosabatlarni samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqmoqda.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirayotgan hozirgi davrda uzluksiz ta’lim jarayonlarini takomillashtirish masalasi nafaqat metodik, balki falsafiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar uzluksiz ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida texnologik innovatsiyalarni joriy etish bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy-ma’naviy oqibatlarini chuqur tahlil qilishga ham e’tibor qaratilmoqda. Chunki raqamli transformatsiya jarayoni inson kapitalining sifatini oshirish, yangi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va ta’limning adolatli imkoniyatlarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asatova, S.E. Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etish tendensiyalari. Tadqiqotlar.uz konf-materiallari. 2022.
2. Bayetdinov, M.J., & Medetbayeva, D.T. Ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot jurnali.

3. Baxtiyorova, Z.A., & Madjidova, D.A. O‘zbekistonda elektron ta’limdagi muammolar va kamchiliklar. Journal-Web.
4. Burxonov, R.R., Ismailov, J.A., & Mavlonov, E.D. Ta’lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning pedagogik asoslari. Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy jurnali. 2021.
5. Do’sanov, R. Q., & Yalgoshev, I. Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. 2024.
6. Iqtidor & Intellekt jurnali. Raqamli texnologiyalar davrida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim turlari va texnologiyalari. 2025.
7. Kun.uz. Oliy ta’limni raqamlashtirish – ustuvor vazifa. Intervyu va maqola, O‘zbekistonda raqamli universitet konsepsiyasi. 2023 28-mart.
8. Xaydarov B. Ta’lim tizimida budget mablag ‘larining maqsadli sarflanishi nazorati //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 12.
9. Xaydarov B. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH, UNING MAQSADI VA VAZIFALARI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 326-336.
10. Хайдаров Б., Туйчиева Н. Инновационные методы обучения информатике и образовательной робототехнике //Информатика и инженерные технологии. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 200-204.
11. Xaydarov B. RIVOJLANGAN DAVLATLARDA ICHKI AUDIT VA UNI IQTISODIYOTIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 87-97.
12. Khaydarov B., Tuychieva N. INNOVATIVE TEACHING METHODS FOR COMPUTER SCIENCE AND EDUCATIONAL ROBOTICS //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 14-19.

AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA OILAVIY KORXONALARNING AHAMIYATI

G‘aybullayev Sarvar O‘ktam o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Unirversitetining Jizzax filiali o‘qituvchisi

Qo‘ziboyev Zafarbek Masharif o‘g‘li

O‘zbekiston Milliy Unirversitetining Jizzax filiali 4-bosqich talabasi

zafarbekquzibayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda oilaviy korxonalarining rivojlanishi va aholi bandligini oshirishdagi o‘rni statistik va tahliliy yondashuv asosida o‘rganiladi. Milliy statistika qo‘mitasi va mehnat inspeksiyasi ma’lumotlari asosida oilaviy korxonalar soni, faoliyat yo‘nalishlari va yaratilgan ish o‘rinlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sohadagi muammolar va istiqbolli imkoniyatlar baholanib, bandlikni oshirishga doir takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy korxona, bandlik, kichik tadbirkorlik, mehnat bozori, aholi bandligi.